

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI
“IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR” KAFEDRASI

MA’NAVIY TAHDIDLARNING
ASOSIY YO`NALISHLARI
USLUBIY QO`LLANMA

NAVOIY-2015

“Ma’naviy tahdidlarning asosiy yo`nalishlari” uslubiy qo`llanmasi O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, ma’ruzalari, “Milliy g`oya: asosiy tushuncha va tamoyillar” “Dinshunoslik.Ma’naviyat asoslari” va boshqa ijtimoiy fanlar mavzulari asosida tayyorlangan bo`lib, oliy o`quv yurti talabalari, o`rta-maxsus o`quv yurtlari o`quvchilari, o`qituvchilari uchun mo`ljallangan.

Muharrir:

dotsent O.Xaitova

Tuzuvchilar:

dotsent J.Nurullaev
katta o`qituvchi N.Berdiev
katta o`qituvchi I.Sharipov
assistent SH. Fayziyeva

Taqrizchilar:

falsafa fanlari doktori, professor
R.Ro`zieva
tarix fanlari nomzodi, dotsent
R.Qarshiyev

Uslubiy qo`llanma institut o`quv-uslubiy kengashining 2015-yil 4-fevral №3 sonli yig`ilishida muhokama etilgan va chop etishga tavsiya qilingan.

MUNDARIJA

KIRISH _____4-6

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, ma`ruzalari va nutqlarida ma`naviy tahdid tushunchasi, mohiyati va mazmunining ochib berilganligi. _____7- 11

2. Ma`naviy va g`oyaviy tahdidning asosiy yo`nalishlari. _____12-34

3. Mafkuraviy tahdid va axborot xavfsizligi. Axborot texnologiyalarida mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo`lishi. _____35-42

4. Yosh avlodni ma`naviy tahdidlardan himoya qilish yo`nalishlari. _____43- 49

ILOVALAR _____50- 55

Adabiyotlar _____ 56

KIRISH

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi yigirma uch yildirki o'z taraqqiyoti yo'lidan shaxdam odimlab bormoqda. Garchi bu davr tarixan qisqa bir davr bo'lsada bu davrda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarida asrlarga tatigulik bo'lgan ishlar amalga oshirildi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

O'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan yaratuvchanlik, bunyodkorlik ishlari tufayli yurtimizning barcha hudud va mintaqalari qiyofasi tubdan o'zgarib obod bo'lib borayotgani, O'zbekiston o'zining barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlari, izchillik bilan hayotga joriy etilayotgan keng qamrovli ijtimoiy dasturlari bilan jahon miqyosida yuksak e'tibor va e'tirofga sazovor bo'layotganini hammamizga avvalambor shu hududda unib - o'sib kelayotgan yoshlarga xursandchilik va ertangi kunga ishonch bag'ishlamoqda. Eng muhimi ana shunday o'zgarishlar natijasida yurtdoshlarimizning dunyoqarashi, ma'naviy olami, hayotga, mehnatga munosabati keskin o'zgarib bormoqda.

Shu ma'noda kechagi kun bilan bugungi kunni solishtiradigan bo'lsak kim edigu, kim bo'ldik degan savolga javob topishimiz qiyin emas.

Prezident Islom Karimov bu haqda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zida shunday fikrlarni keltiradi: "Kecha O'zbekistonimiz o'ta og'ir ijtimoiy-iqtisodiy muammolar girdobida qolib ketgani, qoloq, faqatgina paxta xom ashyosi yetishtiradigan mintaqaga aylanib qolgani, xalqimizning hayot darajasi va sotsial ahvoli qanday ayanchli holatda bo'lgani va bularning barchasi respublikamizni jar

yoqasiga olib kelgani, o'ylaymanki, hali-beri ko'pchilik yurtdoshlarimizning yodidan chiqqan emas.

Mamlakatimizning tarixan qisqa davrda o'zini-o'zi boqishga qurbi yetmagan nochor o'lkadan o'z kuchi va salohiyatiga tayangan, o'z sarhadlari, o'zining tinch va osuda hayotini himoyalashga qodir bo'lgan, bugun izchil va barqaror sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy, mustaqil va suveren davlatga aylangani barchamizga g'urur iftixor bag'ishlamoqda". **(Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma uch yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. "Xalq so'zi" gazetasi 2014 -yil 1-sentyabr)**

Bu haqiqatni har tomonlama chuqur anglash ayniqsa bugungi globallashuv jarayonida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, tinch-osuda hayotimizni ko'ra olmayotgan ayrim g'ayriinsoniy guruhlar din niqobi ostida g'ayriinsoniy g'oyalarni tarqatish yo'li bilan ma'naviy tahdid o'tkazib, o'z ko'zlagan niyatlariga erishish uchun kurash olib borishmoqda. Bunday g'ayriinsoniy kuchlar yoshlarni nishon qilib olib, yoshlar qalbi va ongini egallab, o'z g'arazli niyatlarini amalga oshirishga zo'r berib urinmoqdalar.

Hammualiflar tomonidan tayyorlangan ushbu uslubiy qo'llanmada ma'naviy tahdid tushunchasining mazmun mohiyati, vazifalari, ko'rinishlari va asosiy yo'nalishlari har taraflama ochib berilgan.

Uslubiy qo'llanma professor-o'qituvchilar, talabalar, ma'naviy tahdid va uning asosiy yo'nalishlarini o'rganishga qiziquvchilar uchun mo'ljallangan

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari, nutq va ma`ruzalarida xavfsizlikka va ma`naviyatga tahdid to`g`risida

XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida sodir bo`lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar natijasida xalqaro munosabatlar tizimida vaziyat tubdan o`zgardi.

Globallashuv jarayonlarining ko`p qirrali ahamiyat kasb etayotganligi, milliy va mintaqaviy muammolarning umumjahon muammolariga o`sib o`tishi va yangi xo`jalik, ijtimoiy va tabiiy-biologik global muhitning shakllanishida o`z ifodasini topmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etish va bu ulug` maqsadga erishish uchun eng avvalo mustaqillikni har qanday dushmanlardan saqlab qolish, dunyo miqyosida sodir bo`layotgan voqealardan ogoh bo`lib, hushyorlikni yanada oshirishni taqozo etmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o`zining “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”, “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “Hushyorlikka da`vat”, “Olloh qalbimizda, yuragimizda”, “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin”, “Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir”, “O`zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo`lmaydi”, “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”, “O`zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak” kabi qator asarlarida xavfsizligimizga tahdid, ma`naviyatimizga tahdid haqida batafsil fikrlarni, g`oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning mazmun – mohiyati, din niqobi ostidagi tahdidlarni atroflicha tahlil qiladi, xalqimizni ogoh bo`lishga, hushyor bo`lishga chaqiradi. “Ogoh bo`ling, odamlar!”- degan

da'vat hamisha bong urgandek yangrab turishi kerak. Faxrlanish mumkin va lozim bo'lgan bebaho qadriyatlar - o'z mustaqilligimizni, tinchligimizni, jamiyatda millatlar va fuqarolar o'rtasidagi totuvlikni asrang. O'z erkimizni qanday tasarruf etish, uni bugungi murakkab va ba'zan shafqatsiz dunyodagi haddan ziyod xavf xatarlardan saqlash har birimizga bog'liqdir". (I.A. Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T., "O'zbekiston" 1997, 10-bet.)

Ma'naviy tahdidlarni o'rganishda ma'naviy jarayonlarning globallashuvini e'tibordan chetda qoldirmaslik masalasiga mamlakatimiz rahbari alohida e'tibor qaratadi.

Bu – ma'naviy, mafkuraviy va g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga Yer yuzining barcha mintaqalari tortilganligini ma'naviy mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganligini ifodalovchi tushunchadir.

Birinchidan, insoniyat sivilizasiyasi tarixida erishilgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib, baynalmillashib va universallashib bormoqda. Boshqacha aytganda milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining integratsiyalashuv jarayoni kechmoqda.

Ikkinchidan, millatlararo va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy - madaniy rivojlanishidagi beqarorliklar manfaatlardagi o'ziga xoslikni mutloqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning insonlar manfaatiga ta'sir etuvchi mafkuralashgan holdagi globallashuvga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narkobiznes

hodisalarida namoyon bo`lmoqda. Biron - bir hudud yoki mamlakatda paydo bo`layotgan g`oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamlar ma`lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan olis yaqin manbalardan tarqaladigan turli mafkuraviy markazlarning ma`naviy bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda.

Mamlakatimiz rahbari **“Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” kitobida** ma`naviy tahdidlarga shunday baho beradi:

“ Bu haqda gapirganda, faqat bitta millat yoki xalq haqida fikr yuritish masalani o`ta tor tushunish bo`lur edi. Ya`ni, bu o`rinda so`z faqat bizning ma`naviyatimizga qarshi qaratilgan tajovuzlar haqida, azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni ana shunday hujumlardan asrash xususidagina borayotgani yo`q. Muhim ijtimoiy - siyosiy ahamiyatga ega bo`lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o`rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir.

Ma`naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e`tiqodidan qat`iy nazar, har qaysi odamning tom ma`nodagi erkin inson bo`lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko`zda tutadigan mafkuraviy, g`oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o`ylayman ”

Yurtboshimiz ma`naviyatimizga qaratilgan tahdidlar huquqiy demokratik davlat, odil fuqarolik jamiyati barpo etishimizni ko`ra bilmayotgan, milliy o`zligimizni izdan chiqarishni maqsad qilib qo`ygan g`ayrinsoniy siyosiy guruhlarining ishi ekanligi, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga zarba beradigan

mudhish xafv –xatar ekanligini alohida qayd etib shunday deydi: “ Lo`nda qilib aytadigan bo`lsak, bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishni, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko`zlashni, o`ylaymanki, yurtimizda yashaydigan sog`lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi. Bunday tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg`ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir. Bunday holatlarga duch kelganda, umrida mamlakatimizga qadam qo`ymagan, O`zbekistonni hatto xaritadan ham ko`rsatib berolmaydigan, lekin o`zini mutlaq haqiqatning yagona ifodachisi deb hisoblaydigan kimsalarning yengil - yelpi fikrlarini eshitganda, ularga qarata beixtiyor, e, baraka topgur, oldin yurtimizga bir kelib ko`ring, tariximiz, ma`naviyatimiz, hayot tarzimiz bilan tanishib, undan keyin gapiring, deb aytgingiz keladi.

Haqiqat va xolislikdan yiroq bo`lgan, faqat g`arazli siyosiy manfaatlarini ko`zlaydigan bunday qarashlar hech kimga naf keltirmaydi va va hech kimning obro`siga obro` qo`shmaydi, albatta”.

Ma`naviyat tushunchasi hayotimizga istiqlolga erishganimizdan keyin kirib keldi, desak mubolag’a bo`lmaydi. To`g`ri bu tushuncha avval ham mavjud edi. Ammo mustabid tuzum sharoitida insonning ma`naviyati, ruhiy olami, adolat, qonun ustuvorligi, milliy-axloqiy qadriyatlar to`g`risida hatto mulohaza yuritish ham mumkin bo`lmaganini yaxshi bilamiz.

Davlatimiz rahbari ma`naviyatning ma`no-mohiyatini uzoq yillik hayotiy kuzatishlari, mustaqillik yillari tajribalari va bugun dunyo miqyosida yuz berayotgan shiddatli voqea- hodisalar, xususan, axborot

olamining globallashuvi va bu murakkab jarayonlarning inson ruhiy olamiga ta'siri misolida aniq-ravshan ta'riflab beradi: **“Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg`ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon - e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg`otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”** (Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T., **“Ma’naviyat”, 2008, 19 –bet**)

Bunday ta'riflar va xulosalar bugungi axborot va ma'naviyat olamida kurashlar avj olgan, o`ta murakkab zamonda biz uchun o`z oldimizga aniq maqsadlar qo`yib, ona Vatanimiz, bag`rikeng xalqimizga sadoqat bilan yashashda hayotiy dasturamal bo`lib xizmat qiladi.

MA'NAVIY VA G'OYAVIY TAHDIDNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Hozirgi voqelikda milliy g'oya va mafkuralar orasidagi munosabatlar mafkuraviy kurash, mafkuraviy, ma'naviy tahdidlarning turli xil yo'nalishlari va ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda. "Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z –o'zidan mamlakat xafvsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini, ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin,... Bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qayerdadir bo'shliq paydo bo'ldimi, uni albatta kimdir to'ldirishga harakat qiladi (**Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008 . 11-12 bet.)**

G'oyaviy bo'shliq hosil bo'lishining sabablaridan biri jamiyatda siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy tarbiyaning yetarli emasligi, mafkuraviy jarayonlarning o'z holiga tashlab qo'yilganligidan ham kelib chiqadi. G'oyaviy bo'shliq hosil bo'lgan joyda, albatta, xalq manfaati va qiziqishlariga begona bo'lgan turli xil g'arazli mafkuralar o'z ta'sirini o'tkazadi.

Hozirda keskin tus olib borayotgan globallashuv jarayonlarida g'oyaviy tajovuzlarning turli-tuman ko'rinishlari hamda ta'sir etish usul va vositalari ishlab chiqilmoqda. Turli yo'llar bilan o'z maqsadlarini amalga oshira olmayotgan ekstremistik va terrorchilik guruhlar tobora mafkuraviy tajovuz yo'liga o'tmoqda. Bunday tajovuzlarga mamlakat ahli faqat umuminsoniy g'oyalar va demokratik tamoyillarga sog'lom mafkura bilan qarshi tura olishi mumkin.

Ma'naviy tahdid muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, shaxs va jamiyat xavfsizligini ma'naviy, ruhiy dunyosiga tahdid soluvchi g'oyaviy-nazariy qarashlar shunga asoslangan amaliyot majmuini ifodalaydi. Uning mazmun mohiyati, zararli oqibatlari va ma'naviy tahdidga qarshi kurashish zarurligi Prezident Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida har tomonlama va ishonchli dalillar asosida ko'rsatib berilgan. Ushbu asarda ta'kidlanganidek, "Ma'naviy tahdid deganda avvalo tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy va informatsion dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim". **(Karimov I. A, Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat," 2008, 13- 14-betlar)**

Bizningcha, bu to'laqonli ta'rif bo'lib, u bir necha jihatlari bilan diqqatni tortadi. Shu ma'noda quyidagilarga e'tibor berish lozim.

- Ma'naviy tahdidlarning xususiyatlari: a) til tanlamaydi; b) din tanlamaydi; v) e'tiqod tanlamaydi. Boshqacha aytganda, ma'naviy tahdidlar odamning qaysi tilda so'zlashishi, qaysi dinda ekani, e'tiqodining qandayligidan qat'iy nazar insonga daxl qiladi.

- Ma'naviy tahdidlarning zarari: a) inson erkinligiga daxl qiladi; b) insonning ruhiy dunyosini izdan chiqaradi; v) g'arazli maqsadni amalga oshiradi;

Ma'naviy tahdidlarning turlari: a) mafkuraviy; b) g'oyaviy; v) informatsion.

Prezidentimiz I.A.Karimov mustaqillikka erishgan dastlabki kunlarimizdan boshlab, bizning xavfsizligimiz va ozodligimizga tahdid ko`rsatuvchi bir necha asosiy xavf borligini ko`rsatib kelmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, eng katta xavf-xatar bizning mustaqil yo`limizni ko`rolmaydigan, turli bahonalar bilan O`zbekistonga o`z siyosatini, ta'sirini o`tkazish va hukmronlik qilishga intilayotgan kuchlarning mavjudligidir.

Mamlakatimiz tashqarisidagi bu tajovuzkor, aqidaparast kuchlar islom dini xalqimiz uchun muqaddas qadriyat ekanligidan foydalanib, otabobolarimiz dinini niqob qilib, O`zbekistonni demokratik ma'rifiy taraqqiyot yo`lidan og`dirishga, uni orqaga qaytarishga urinmoqda. Buni bizga yot, turli aqidaparastlik oqimiga mansub - "Vahhobiylik", "Hizb ut-tahrir", "Musulmon birodarlar", "Islom uyg`onish partiyasi", "Nur", "Islom ozodlik partiyasi" "Tavba", "Akromiylar" va boshqa yovuz harakatlar misolida yaqqol ko`rish mumkin.

Bu tajovuzkor guruhlar, sotqinlar avvalo o`zlari ishonmaydigan g`oya va aqidalarni aholi o`rtasida tarqatib, irodasi bo`sh, ongi past ayrim yoshlarni aldab, ularga qasam ichtirib, soxta e'tiqodga ko`ndirib, o`z tarafdorlari sonini ko`paytirishga urinib kelayapti. Bunday maxfiy tarzda qo`poruvchilik faoliyati olib borayotgan tashkilotlarni chet ellardagi ekstremistik kuchlar va markazlar boshqarmoqda.

Bu kabi tashqi tahdidlarning asl maqsadi haqida gapirganda quyidagilarni nazardan qochirmaslik kerak:

- dunyoni ijtimoiy, tarixiy omillar asosida bo`lib olish;
- xalqlarni ma'naviy, mafkuraviy jihatdan tobe qilish;
- dunyoni mafkuraviy jihatdan bo`lib olish;

- islom xalifaligini tiklab, uning bayrog`i ostida musulmon xalqlarini yangi imperiyaga birlashtirishga intilish;
- axloqsizlik g`oyalarini yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga intilish;
- xalqimizning milliy qadriyatlari va muqaddas dinimiz mohiyatini soxtalashtirishga urinish;
- turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolar keltirib chiqarish.
-

DINIY AQIDAPARASTLIK

Aqida (arab, ishonch - shak keltirmasdan, muhokama qilmasdan bajarish, e'tiqod qilish lozim bo'lgan qoida va talablar. Aqida qanday shaklda bo'lmasin, muayyan ishonch va e'tiqod asosida shakllanadi. Kishilar hayoti va turmushining barqaror hodisasi sifatida ularning ma'naviyati, ta'lim - tarbiyasi va xulq-atvoriga ta'sir qiladi.

Aqidaga xos eng muhim jihatlardan biri uning ijtimoiy xususiyatga hamda individual zohiriylikka ega ekanidadir. Aqida nafaqat diniy, balki dunyoviy asosga, ob'yektiv zaminga ega bo'lishi ham mumkin. Ammo bu uning ob'yektiv haqiqat ekanini anglatmaydi. Diniy aqidalarning asoslari muayyan dinlarning asosiy natijalarida, ularga xos qonun-qoidalar va talablarda ifodalangan. Masalan, islom aqidalarining asosi Qur'on va hadislardagi me'yor hamda ko'rsatmalar negizida ishlab chiqilib, tartibga solingan. Islomning sunniylik mazhabida e'tirof etiladigan aqidalar yettita: bular Allohning yagonaligi, farishtalar, muqaddas kitoblar, payg'ambarlar, oxirat va taqdirga, insonning qiyomat kuni qayta tirilishiga ishonishdan iborat. Islom VII asrda shakllangan bo'lsada, ilohiyot

ilmidagi aqidaviy ta'limotlarning shakllanishida IX asr oxiri, X asrning birinchi yarmi alohida ahamiyat kasb etdi. Chunki bu davrda kalom ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan moturidiya va ash'ariya ta'limotlari vujudga kelgan. Imom Moturidiy va Imom Ash'ariy ilmiy-ma'naviy merosida butun musulmon olamiga xos bo'lgan umumiy qoidalar o'z aksini toptan. Bu - ahli sunna val-jamoatning ikki maktabi orasidagi aqidaviy masalalarga oid farq bo'lib, ularning biri lafziy (ifodadagi), ikkinchisi ma'naviy (mazmuniy) tusga ega.

Aqidaparastlik - kishilarning qalbi va ongiga mafkuraviy tazyiqlar asosida singdirilib, e'tiqod darajasiga ko'tarilgan dunyoqarash shakllaridan biri.

Aqidaparastlik ikkita shaklda namoyon bo'ladi:

Aqidaning **dunyoviy shakli** (egoizm, shovinizm, kommunizm, bolshevizm, ateizm, millatchilik va boshqalar.);

aqidaning **diniy shakli**, (vahhobiylik, "Hizb ut-tahrir ", "Hizbullox ", "Al-qoida " va boshqalar.). Aqidalarni zamon va makondan ajratgan holda anglab, ularni mutlaq o'zgarmas haqiqat deb biladigan, shunday boshqa qarashlarni tan olmaydigan g'oyaviy-mafkuraviy oqim vakillari aqidaparastlar deb yuritiladi. Islomning sunniylik oqimi ilohiyotchilari **Qur'oni Karim** va hadisi sharifga asoslanib ishlab chiqqan yettita iymon talabini aqida deb hisoblaydilar. Shialik oqimida beshta aqida imon talabi hisoblanadi. Bular - Allohning yagonaligiga, payg'ambarlarga, imomat (oliy hokimiyat imom- payg'ambar avlodi qo'lida bo'lishi)ga, adl (ilohiy taqdirning adolatligi)ga, oxiratning ro'y berishiga ishonchdan iborat. Biroq barcha dinlarda, jumladan, islomda iymon talablaridan boshqa qator tushunchalar ham aqida hisoblanadi. Har bir diniy tashkilot (diniy

konfessiya) va muayyan diniy jamoa o'zi haqiqatning oxirgi nuqtasi sifatida qabul qilgan ilohiy tushunchalarga qat'iy ravishda ishonch ruhini dindorlar ongiga singdirish uchun juda ko'p vositalar, uslublardan foydalanadi. E'tiqodlariga xilof bo'lgan o'zgacha qarashlar va munosabatlar qaror topishiga iloji boricha qarshilik ko'rsatadi. Ana shu jarayonda qavmlarda muayyan andozaga tushgan yaxlit dunyoqarash, dunyoni his etish shakllanadi. Inson fe'l-atvori, faoliyati ma'lum bir izga tushiriladi. Shundan kelib chiqib, tabiiy va ijtimoiy hodisalarga munosabat belgilanadi.

Aqidaparastlikni «fundamentalizm», «diniy ekstremizm» tushunchalari bilan ham aynanlashtirish ularga noilmiy yondashuvlarga sabab bo'ladi. Bu tushunchalarda umumiy o'xshash jihatlardan tashqari jiddiy tafovutlar borligini ham nazarda tutgan ma'qul. Diniy bilimlarni tarixiy davrdan va real ijtimoiy voqelikdan ajratib o'zlashtirib olgan, binobarin, dinlarning asl insonparvarlik mohiyatini tushunmagan va tushunishni istamagan shaxslarni aqidaparastlar deyish to'g'ri bo'ladi. Ammo aqidaparastlik sof diniy mazmundan ko'ra, kengroq mohiyatga ega ekanini e'tiborda tutish zarur. Ya'ni, aqidaparastlik nafaqat dinda, balki ilm- fanda, jumladan, falsafada ham o'zini namoyon etib, ijtimoiy taraqqiyot, milliy va inson kamoloti yo'lga g'oyaviy to'siq bo'lishi mumkin,

Har qanday sohada chuqurroq bilimga ega bo'lmagan yoki dastlabki bilimlari bilan cheklanib, o'z ustida ishlamay qo'ygan kishilar odatda aqidaparastlikni rag'batlantiruvchi ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqadi. Aqidaparastlik o'ta sayoz bilimga ega bo'lgani sababli bahs-munozaraga tish-tirnog'i bilan qarshi chiqadi. U ijtimoiy va milliy ma'naviyatni jilovlab qo'yib, ijtimoiy taraqqiyotni turg'unlikka, hatto

orqaga ketishiga sabab bo`lishi bilan o`ta xatarlidir.

Aqidaparastlik dogmatizm bilan chambarchas bog`liq. (Dogmatizm yunon, dogma- “fikr”, “ta’limot”) - biror bir fikr, ta’limotga, muayyan oqim tarafdorlariga, aqidalarga ko`r-ko`rona ishonish, eskirgan, qotib qolgan bir tomonlama nazariya va qonun-qoidalariga, aqidalarga asoslangan tafakkur tarzini ifoda etadi.

Muayyan aqidani ko`r-ko`rona qabul qilish va unga ishonish dogmatizm tarafdorlarining asosiy tamoyilidir. Ular amaliyot, ilm-fan yutuqlari natijasida haqiqat tobora oydinlashib, muayyanlashib borishini his qilmaydi. Ularning nazarida, tushunchalar, nazariyalar, gipotezalar, qonunlar o`zgarmasdir. Agar biz bilishning biror bir tomonini mutlaqlashtirib, unga ortiqcha baho bersak, dogmatizm tomon yo`l tutgan bo`lamiz. Dogmatizmni yo`qlovchilar o`z falsafiy qarashlari bilan bilishning ob`yektivligini, haqiqat bilishning asosi ekanini hamda ob`yektiv olam to`g`risida bilimning rivojlanib, kengayib borishini inkor etadi. Bu bilan nisbiy haqiqatning rolini kamsitib, mutlaq haqiqatni bilishning birdan-bir bosqichi deb hisoblaydi. Dogmatizmning xilma-xil shakllari mavjud: **siyosiy, ilmiy, diniy** va hokazo. Ular ijtimoiy hayotda ilm-fan, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladi, har qanday holatda ham muayyan g`oyani mutlaqlashtirib, taraqqiyotga to`siq bo`lib qolaveradi. Masalan, ayrim diniy aqidaparastlarning insoniyat taraqqiyotining muayyan davrida paydo bo`lib, yemirilib ketgan musulmon xalifaligini tiklashga urinishlari dogmatizmning eng ashaddiy ko`rinishlaridan biridir. Bunday buzg`unchi g`oyalarning mazmun-mohiyati va maqsad-muddaolari haqida to`xtalib, Prezidentimiz shunday deydi: «**Bunday soxta, zamirida hech qanday**

asos bo'lmagan safsatalar haqida gapirganda, avvalo bugun biz XXI asrda yashayotganimizni esdan chiqarmasligimiz kerak... Axir, hammamizga ma'lum: tarix g'ildiragini orqaga qaytarib bo'lmaydiku! Shu nuqtai nazardan qaraganda, barcha musulmon davlatlarini yagona xalifalikka birlashtirish maqsadi ham hech qanday aqlga sig'maydigan afsona, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi»

EKSTREMIZM

Ekstremizm (lot, extrmmus- "ashaddiy") — **siyosatda ashaddiy qarash va choralarga moyillik.** Ekstremizmni vujudga keltiradigan omillar ko'p va xilma xil. Ular orasida bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish davrida yuz beradigan ijtimoiy tuzilmalarning buzilishi, aholi katta guruhlarining qashshoqlashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy tanglik kabi omillarni ko'rsatish mumkin.

Bu omillar aholi turmush sharoitlarining yomonlashuviga olib keladi. Davlat hokimiyatining zaiflashuvi, davlat organlarining obro'sizlanishi, ijro intizomining pasayib ketishi, qadriyatlar tizimining yemirilishi, aksil ijtimoiy kayfiyat va harakatlarning kuchayib borishi ham ekstremizmni vujudga keltiradigan sabablardan hisoblanadi.

Ekstremizm aholining siyosiy va ijtimoiy kayfiyatidan mavjud ijtimoiy tuzilmalarni vayron qilish maqsadida foydalanadi. Ekstremistik tashkilotlar Konstitutsiya va boshqa qonuniy hujjatlarga zid tarzda faoliyat yuritadi. Shu ma'noda, ekstremizm - huquqiy nigilizmning bir ko'rinishi hisoblanadi.

XX asrning 80-90 - yillarida siyosiy ekstremizmning namoyon bo'lish ko'lemi kengaydi. Bu davrda odamlarni garovga olish, siyosiy

qotilliklar, siyosiy partiyalar a'zolariga qurolli hujumlar uyushtirish, anarxistik, shovinistik va neofashist guruhlarining faollashuvi kuzatildi.

Ekstremizm **siyosiy, psixologik, maishiy** va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Siyosiy ekstremizmning ashaddiy ko'rinishi — terrorizmdir. Ekstremistlar odamlarga qiyinchiliklarni tezda bartaraf qilish, tartibni kafolatlash, ijtimoiy ta'minotni yaxshilash singari va'dalar beradi. Siyosiy ekstremizm "so'l" va "o'ng" ko'rinishlarga ega.

So'l ekstremistlar marksizm, leninizm, so'l radikalizm, anarxizm va shu kabi mafkuralar bayrog'i ostida harakat qiladi. So'l ekstremizmga misol tariqasida Italiyadagi "Qizil brigadalar", Kampuchiyadagi polpotchilar singari oqimlarni keltirish mumkin. O'ng ekstremistlar aksilkommunizm, avtoritarizm, millatchilik va shovinizm ruhida harakat qiladi.

O'ng ekstremistlar qator xalqaro tashkilotlar- Evropa ishchi partiyasi, Evropa o'ng kuchlari, Qora Internatsional, Fransiyadagi "Milliy front" kabilarga birlashgan. O'ng va so'l ekstremistlar olib borayogan faoliyat vakillik demokratiyasi manfaatlariga ziddir. Shuning uchun ham Fapb siyosatshunosligida "Yagona Ekstremizm", "Ikki Ekstremizm" va "Uch Ekstremizm" kontseptsionalari mavjud. "Yagona Ekstremizm" kontseptsionalasi kommunistik va fashistik diktaturalarning mavjudligidan kelib chiqadi. "Uch Ekstremizm" kontseptsionalasiga ko'ra, fashizm - sentristlar ekstremizmi, kommunizm – so'llar ekstremizmi, gollizm esa – o'nglar ekstremizmidir. Portugaliyadagi Salazar rejimi o'nglar rejimi hisoblanadi.

■ Diniy-ekstremistik guruhlarining bosh maqsadi - «xalifalik» yoki «islom amirligi» davlati tuzish shiori ostida siyosiy hokimiyatni

egallashdir. Ushbu maqsadga yetish yo`lida aholiga hanafiylik mazhabiga zid mutaassib g`oyalarni singdirish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, hukumatga tayziq o`tkazish, aholi ichida qo`rquv, parokandalik hamda davlatga nisbatan ishonchsizlik uyg`otish hamda respublika rahbariyati tomonidan diniy sohada olib borilayotgan siyosatni obro`sizlantirish kabi oraliq maqsadlarga bo`ysundirilgan faoliyat olib boriladi.

■ diniy ekstremistik tashkilotlarning asosiy faoliyat uslublari: ekstremistik ruhdagi adabiyot, video va audio tasmlarni tarqatish, xufiya guruhlar tuzish va faoliyatini yo`lga qo`yish, yashirin diniy «hujralarda» o`qiyotganlarga mutaassib tushunchalarni singdirishi, ijtimoiy-siyosiy holatni keskin qoralash, davlat va diniy idora vakillarini obro`sizlantirish, terrorchilik harakatlari o`tkazish.

TERRORIZM

Terrorizm –yuksak ma’naviy tamoyillarga zid ravishda yovuz maqsadlar yo`lida kuch ishlatib, odamlarni garovga olish, o`ldirish, ijtimoiy ob`yektlarni portlatish, xalqni qo`rquv va vahimaga solishga asoslangan zo`ravonlik usulini anglatuvchi tushuncha. Qo`rqitish va dahshatga solish orqali o`z hukmini o`tkazishga urinish terrorizmga xosdir. U siyosiy, iqtisodiy, diniy, g`oyaviy, irqiy, milliy, guruhiy va individual shakllarda namoyon bo`lishi mumkin. Ta`qib, zo`ravonlik, qo`porovchilik va qotillik terrorizmning har qanday ko`rinishi uchun umumiy xususiyat bo`lib, bularning barchasi insonpavrarlik g`oyalari, demokratiya, adolat tamoyillariga ziddir. SHuning uchun terrorizm qanday niqob ostida amalga oshirilmasin, mohiyatan, insoniyatga, taraqqiyotga, ezgulikka

qarshi jinoyatdir.

Terrorizmga hozirgi kunda aniq, hamma uchun tushunarli va mukammal ta'rif berish oson emas. Chunki u o'ta murakkab fenomendir. Bundan tashqari, terrorchi kuchlarga bo'lgan turlicha munosabat unga to'liq ta'rif berishni qiyinlashtirmoqda. Terror usullaridan konservativ, inqilobiy, diniy, millatchi ruhdagi kuchlar ham foydalanishlari mumkin, lekin ularning asosiy mohiyati va maqsad-muddaolari siyosiy tusga egadir. Terrorizmning umumiy jihatlari va asosiy ko'rinishlarini o'rganishda avvalambor, uning ta'rifini nisbiy bo'lsa ham aniqlashtirib olish lozim.

Terrorizm muayyan guruhning ruxsat etilmagan holatda ongli ravishda kuch ishlatishdir. Bunda terrorchilar aniq maqsadni ko'zlaydi va o'zini to'la haq deb biladi. Bundan shu narsa aniq bo'ladiki, terrorchilardagi mavjud kuch maqsadni amalga oshirishda ijtimoiy-siyosiy muhit bilan bevosita aloqadorlikda bo'ladi. Terrorizm ko'p holatlarda keng miqyosdagi harbiy kuchlar bilan aloqador bo'ladi va bunday misollar tarixda bir necha bor kuzatilgan. Bundan tashqari, u ba'zi davlatlarning o'zi tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin

Terrorizm tushunchasi hamisha terroristik harakatning tez sur'atda amalga oshirilishini bildiradi. Bunday hodisa siyosiy, etnik, diniy va boshqa ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

G'oyaviy terrorizm siyosiy yetakchilar tomonidan yaratiladi. Bunga rasmiy tor doiradagi istisno qilingan ichki sabablar ko'rsatiladi.

Etnik terrorizm sub'yekti g'oyaviy bo'lmasdan, jamiyatning milliy va etnik jihatlari bilan uzviy bog'liqdir.

Diniy terrorizm muayyan bir diniy sekta yoki guruh ta'limotining jamiyatda mutlaqlashtirilishi oqibatida paydo bo'ladi. Bunda ushbu g'oya

tarafdorlari boshqalar fikri va g'oyalarini keskin tanqid ostiga olib, rad etadi va g'oyaviy mafkuraviy parokandalikni keltirib chiqaradi. Diniy terrorizmning xatarli jihati u qo'llaydigan amaliy choralarda ko'rinadi. Chunki diniy terrorizm tarafdorlari aksariyat hollarda qo'lida qurol va ba'zan harbiy guruhlariga tayanib harakat qiladi. Bugungi kunda yadroviy, biologik, bakteriologik qurollarning terrorchilar qo'lga tushib qolishi ehtimoli eng katta xavfdir.

Hozirgi tahlikali zamonda kishilar boshiga mislsiz kulfat solayotgan va ularning hayoti, farzandlari, mol-mulkiga tahdid qilayotgan jinoiy terrorizm kundan-kunga kuchayib bormoqda va jahon hamjamiyatida jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Iqtisodiy manfaatlarni ko'zlaydigan va moddiy boyliklarni o'zlashtirishni maqsad qilib olgan bu terrorizm korrupsiya kabi katta jinoiy tizim bilan uzviy bog'lanib ketgan. Unda raqiblari yoki ularning yaqinlarini o'ldirish, o'g'irlab ketish, zo'ravonlik, tajovuz bilan qo'rqitib, o'z hukmini o'tkazishga urinish, mol-mulkini o'zlashtirib olish yo'llaridan foydalaniladi. Buning yana bir tomoni - ba'zan bu terror siyosiy, etnik, ba'zan esa diniy xarakter kasb etmoqda. Mana shunday vaziyatda terrorchilarning maqsadi hokimiyatni egallashga ham qaratilib, piramidasimon xarakterga ega bo'lib bormoqda.

Individual terrorizmning sub'yekti, boshqa terrorizm harakatlaridan farqli o'laroq, jamoa emas, yagona shaxsdir. Individual terror ham o'ta xavfli kuch hisoblanadi, negaki u jamiyatning boshqa a'zolariga ta'sir qilishi va buning oqibatida terrorning ommaviy turlarini keltirib chiqarishi mumkin. U o'z g'oyalarini singdirish orqali boshqalarni ham jamiyatga qarshi qo'yishi mumkin.

Keyingi yillarda ommaviy axborot sohasida ham terrorizm

elementlaridan foydalanilmoqda. Muayyan mafkuraviy poligonlar tarqatayotgan axborotlardagi yovuz va zararli g'oyalar oqimi, teleekranlar orqali uzluksiz namoyish etilayotgan jangari filmlar, bolalarga mo'ljallangan, buzg'unchi g'oyalar asosida yaratilgan o'yinlar, kompyuter tarmoqlari dasturlarini ishdan chiqaradigan viruslar tarqatish shular jumlasidandir.

O'zining yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni qo'lga kiritishni ko'zlaydigan kuchlarning zo'ravonligi va qo'poruvchiligi siyosiy terrorga misol bo'ladi. Siyosiy terrorizm nafaqat jinoyatchi guruhlar, hatto ba'zi tajovuzkor ruhdagi rasmiy reaksion siyosiy doiralar va kuchlar tomonidan uyushtirilishi va qo'llanishi ham mumkin. Chorizm imperiyasining kolonial va shovinistik siyosati, sovet imperiyasining g'oyaviy qatag'onlari xalqimizga qarshi o'ziga xos terror edi. Bugungi kunda ham mustaqil rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatimizga nisbatan g'araz niyat bilan qarovchi yovuz kuchlar terrorizm yo'li bilan taraqqiyot yo'limizdan chalg'itishga, bizni yana qaramlik va asoratga solishga urinmoqda. Ular vatanfurush xoinlardan ham, terrorizmni kasb qilib olgan, buyurtma bo'yicha qo'poruvchilik va bosqinchilik bilan shug'ullanadigan» yollanma xalqaro terrorchi, jinoyatchi guruhlardan ham foydalanmoqda. Bugun jahon hamjamiyati bu balo-qazolarning yechimini topish ustida bosh qotirmoqda. Prezident Islom Karimov bu borada shunday degan edi: **"Men madaniyat va ma'rifat dunyoni jaholat va vahshiylikdan, diniy va milliy ekstremizmdan, etnik qarama- qarshilik, mintaqaviy mojaro va urushlardan saqlay olishiga ishonaman"**.

Terrorizmga qarshi kurash hozirgi davrda muhim vazifa, tinchlik va barqarorlikni saqlash omiliga aylandi. Har qanday diniy mutaassib oqim

«o`lja»sining hayotiy muhim ehtiyojlarini inobatga olgan holda, o`z ta`limotini jozibador qilib ko`rsatishga harakat qiladi. Odamlarning bunday oqimlar ta`siriga tushib qolishi, shuningdek, odatdagi axborot doirasidan tashqariga chiqadigan turli shov-shuvlarga ortiqcha e`tibori bilan ham belgilanadi. Bunday e`tiborni bugungi kunda keng tarqalayotgan g`ayritabiiy hodisa va jarayonlarning haqiqatan ham mavjudligi haqidagi axborotlar oziqlantirib turadi. Turli axborot manbalarining doimiy ta`siri ostida bo`lgan bir paytda inson g`ayriilmiy, soxta diniy g`oyalarni qabul qilishga moyil bo`lib qoladi. Terroristik guruhlarining asosiy maqsadlari zo`ravonlik va aldash usullari bilan siyosiy hokimiyatga erishish bo`lib, bu yo`lda guruh yetakchilari oddiy a`zolari bemaol qurbon qilib yubormoqdalar.

DINIY EKSTREMISTIK HARAKATLAR NIMA UCHUN ASOSIY E`TIBORNI YOSHLARGA QARATMOQDALAR?

Respublikamizda e`tiqod erkinligini ta`minlash masalasida barcha sharoitlar yaratib berilgan bir sharoitda, makkor va qo`poruvchi kuchlar, diniy mutaassib guruhlar o`z qabih rejalarini amalga oshirish yo`lida xalq ichida buzg`unchi g`oyalarni tarqatishga urinmoqdalar.

Amaliyot shuni ko`rsatmoqdaki, ekstremistlar o`z maqsadlari uchun asosan yosh yigit va qizlarni tanlaydilar. Nega aynan yoshlar va ayollar?

Chunki aynan ular Vatanimiz kelajagi, millatimiz ertangi kuni, taraqqiyotini belgilab beradi. **Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganlaridek: «XXI asrda qaysi davlat qudratli, qaysi kuchli bo`ladi? Bu savolga, aholisi intellektual nuqtai nazardan barkamol, yoshlari bilimli, or-nomusli, vatanparvar bo`lib, unib-o`sayotgan davlat, deb javob qaytarish mumkin».**

Shu o`rinda o`smirlar tashqi ta`sirlarga ko`pro` moyil bo`lishini

alohida qayd etish lozim. Muayyan hollarda hayotdagi orzu-maqсадlarga mustaqil erishish harakatlarining hamma vaqt ham amalga oshavermasligi oqibatida yoshlarda infantillik (o'zini nochor, yordamga muhtoj his qilish)dek xususiyat shakllanishi kuzatiladi. Bunday vaziyatda ularda "oliy maqsadlarga intilayotgan men kabi kishilar yoki jamoa mavjud", - degan tasavvur paydo bo'lishiga zamin yaratiladi. Shunda ular o'zlarining maqsad va intilishlarini tushunadigan kishilarni izlay boshlaydilar.

Ayni paytda, jiddiy mas'uliyatdan ozod bo'lgan o'smirlar uchun shaxsiy tajribaning yetishmasligi xosdir. U soddadillik va xayolparastlik bilan yonma-yon keladi. Shu bilan birga, yoshlar nazdida atrofda kuzatilayotgan adolatsizlik natijasida yuzaga keladigan zo'riqishni yo'qotishda faqat birgina yo'l - «buyuk g'oya»ni o'zida mujassamlashtirgan yetakchi bilan hammaslak bo'lishni tanlashga moyillik yuzaga keladi. Bu yo'l o'smirni diniy mutaassib oqimlarning domiga tortilishiga olib kelishi mumkin.

“Hizbut tahrir al-islomiy” (“Islom ozodlik partiyasi”) norasmiy diniy- siyosiy partiyasiga 1953 yilda Taqiyuddin Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan. U 1948 yilga qadar terrorchilik amaliyoti bilan nom chiqargan “Al- ixvon al-muslimun” (“Musulmon birodarlar”) guruhining Falastin bo'linmasida faoliyat yuritgan. 1953 yili Asad Taxminiy, Xolid Hasan kabi maslakdoshlari bilan “Al-ixvon al-muslimun” guruhining o'z hududidagi a'zolarini yangi diniy- siyosiy partiya - “Hizb ut at- tahrir al islomiy” ga birlashtirgan. Dastavval, Falastinni yahudiylardan ozod qilishni ko'zlagan Nabahoniy, keyinchalik musulmon mamlakatlarini birlashtiruvchi yagona xalifalik davlatini qurishni partiyaning maqsadi deb e'lon qildi. Nabahoniy va uning izdoshi Abdul

Qadim Zallumning “Islom nizomi”, “Islom davlati”, “Xalifalik”, “Islomiy olamga qaynoq nidolar” va “Hizbut tahrirning tushunchalari”, “Demokratiya - kufr nizomi”, “Siyosiy ong”, “Idoriy qonun”, “Idoriy to’plam” kabi kitoblarida oqim ta’limoti bayon etilgan. Ushbu adabiyotlarda g’arb sivilizatsiyasi va dunyoviy davlat tamoyillari qoralangan, demokratiya, konstitutsiya, saylov kabi siyosiy institutlar inkor qilingan holda, turli mamlakatlarda radikal islom g’oyalarini targ’ib qilish, hokimiyatni qo’lga kiritish hamda xalifalikka asoslangan tuzumni o’rnatish yo’llari bayon etiladi. Hozirgi kunda esa tashkilot rahbarlari tomonidan ilgari surilgan “arab- isroil muammolarini hal etishning yagona vositasi - yahudiylarni ommaviy qirg’in qilish”, degan jangari g’oya “Hizbut tahrir”ning haqiqiy mohiyatini belgilab beradi deyish mumkin. Bayrutda tashkilotning “al-Va’y” (“Ong”) jurnali chop etiladi. “Hizbut tahrir” faoliyati 1970-80 yillardan buyon Pokiston, Indoneziya, Filippin, 1990-yillar boshidan esa Markaziy Osiyo davlatlarida, 2003-2004 yillardan Qrim yarim oroli va Rossiyaning ba’zi mintaqalarida kuzatilmoqda. “Hizbut tahrir” shariat asoslari hamda insoniylik tamoyillaridan umuman uzoq bo’lgan faoliyatini Qur’on oyatlari va hadislarni noto’g’ri talqin qilish orqali isbotlashga urinadi. Garchi “Hizbut tahrir” o’z faoliyatida faqat g’oyaviy kurash usullaridan foydalanishni e’lon qilsa-da, tashkilot mafkurasini ifodalovchi hujjatlar hamda uning faollarining musulmon dunyosiga mansub bir qator davlatlarda konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan terrorchilik amaliyotlarida ishtirok etgani buning aksini ko’rsatadi. Jumladan, 1989- yil AQSHning Missuri shtatida “Musulmon talabalarning baynalminal aloqalari” nomi ostida o’tgan anjumanida “Hizbut tahrir” rahbariyatining vakili

“Musulmon boʻlmagan hukumatlarga qurolli jihod eʼlon qilish zarur”, degan gʻoyaga yoʻgʻrilgan maʼruza bilan chiqqan. “Hizbut tahrir” faollari Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika davlatlarida koʻplab qurolli xurujlarni amalga oshirgan.

Hozirgi kunda “Hizbut tahrir” bevosita oʻz faoliyatini xufiyalashtirish maqsadida oʻzaro aloqalarida bir birlariga asliy ism emas, balki islomiy ismlardan iborat boʻlgan taxalluslarda faoliyat koʻrsatadilar. Varaqa va adabiyotlarni bevosita internet elektron saytlari orqali almashadilar.

“Tabligʻchilar” jamoasi. “Tabligʻ” - arabcha yetkazish maʼnosida, tor maʼnoda Allohning kalomini odamlarga yetkazishni anglatadi. Bu oqimga Hindistonda Muhammad Ilyos Kandehlaviy (1885-1994) tomonidan 1927 - yilda asos solingan. Oqim ilk davridan boshlab islomdan boshqa barcha dinlarga toqat qilolmasliklari bilan ajralib turganlar.

Muhammad Ilyos oʻzi yashagan davrda, yaʼni XX asrning boshlarida hinduizmga qarshi oʻlaroq koʻproq kishilarni islomga jalb qilish maqsadida oʻziga xos tarbiya tizimini yaratdi va u yerda odamlarga islom haqidagi eng sodda bilimlarni bera boshladi va tarbiyalangan kishilarni “Tabligʻchi” (daʼvatchi) sifatida joylarga tarqata boshladi.

"Nurchilar" diniy jamoasi. Turkiyadagi diniy oqimlardan biri boʻlgan “Nurchilar” jamoasining asoschisi turkiyalik Said Nursiy (1873-1960) hisoblanadi. “Nurchilar” gʻoyalari S.Nursiy tomonidan yozilgan “Risoi nur” kulliyotida oʻz aksini topgan boʻlib, bu turkum kitoblar dunyoning 15 tiliga tarjima qilingan.

Bu oʻrinda yana bir narsaga eʼtibor qaratish lozimki, oqim vakillari oʻzlariga yangi aʼzoni jalb etishda birinchi navbatda “Nur”chilar jamoasi

faoliyati siyosatdan uzoq degan fikrni beradilar. Aslida bu bir niqob bo`lib, ularning faoliyati negizida siyosatga aralashuv yotadi.

1942- yilda Turkiyaning Erzurum shahrida tug`ilgan F.Gyulen “Nur” harakatining asoschisi Said Nursiy vafotidan so`ng uning o`rnini egallagach, nurchilarning Izmirdagi harakati rejalarini ishlab chiqqan va harakat ishtirokchilarining amaliy mashg`ulotlariga rahbarlik qilgan.

“Jihodchilar” (Vahhobiylik) - diniy, siyosiy, fundamentalistik va ekstremistik oqim bo`lib, XVIII asrda Markaziy Arabistonning Najd vohasida yuzaga kelgan. Uning asoschisi Muhammad ibn Abdul Vahhob ibn Sulaymon (1703- 1792) hisoblanadi.

Muhammad ibn Abdul Vahhob izdoshlarini uning nomi bilan "vahhobiylar" deb atashgan. Vahhobiylar bevosita din nomidan ish ko`rgan va uni "tozalash" go`yoki Payg`ambar davridagi asl holatiga qaytarish, barcha arablarni yashil bayroq ostida birlashtirish kabi g`oyalarni ilgari surgan. Ularning fikriga ko`ra, butun islom dunyosi tavhid (yakka xudolikka) tamoyilidan chekingan.

Ibn Abdulvahhob o`z faoliyatini dinni butparastlikdan xalos etish uchun olib borayotganligini ta`kidlagan. Uning uqtirishicha, so`nggi 600 yil davomida yashab kelgan musulmonlar butparastlik botqog`iga botib yashaganlar, u esa Islomni qayta tikladi. Qur`on butparastlarga qarata aytilgan ko`pgina oyatlarni u musulmonlarga qarata aytdi va tatbiq qildi.

Vahhobiylar dunyoviy madaniyatga qat`iy qarshi turib, musiqa, teatr va tasviriy san`at bilan shug`ullanish, badiiy zavq-shavq olish kechirilmaydigan gunoh deb hisoblashadi.

Qayd etish lozimki, vahhobiylar o`zlari zulm o`tkazgan hududdagi barcha musulmon aholisiga o`z mafkurasini majburan singdira olmagan.

Ularning o`ta tor mutaassib ta`limoti xalqning qattiq qarshiligiga uchragan. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi choragida vahhobiylar tarafdorlari qirib tashlanganligi tarixdan ma`lum.

Bu oqimning hozirgi zamondagi targ`ibotchilari dunyoviy mamlakatlar xalqlarini, davlatlarni kufrda, shirkda (harom) ayblab, ularga qarshi kurashish uchun qulay fursat izlaydi. Vahhobiylar kishilarda murosasizlik, o`zgalar fikrlari, manfaatlariga hurmatsizlik ruhini singdirishga harakat qiladilar.

Hozirgi zamon vahhobiy-(jihodchi)lari diniy-siyosiy oqim sifatida islom dini paydo bo`lgan paytdagi ibtidoiy shaklga qaytish, bu ta`limotni yer yuzidagi musulmonlar orasiga tarqatishni "jihod", ya`ni tinch aholiga qarshi ochiqdan- ochiq urush e`lon qilish yo`lini tanlab, majburiy mafkuralashgan targ`ibot- tashviqot qilmoqdalar. Terrorchi, radikal va ekstremistik tashkilotlar aksariyatining ta`limoti asosini vahhobiylar tashkil etadi.

Vahhobiylar tomonidan ilgari surilayotgan jihod tushunchasiga kelsak, uning zamirida insonlarni qo`rqitish, dahshat, vahima uyg`otish, qirib tashlash, mol-mulkiga ziyon yetkazish, dinlararo ig`vo, nifoq keltirib chiqarish, oxir- oqibatda begunoh, insonlarning o`limiga olib keluvchi terrorchilik kabi o`ta og`ir jinoyatlarni sodir etib, faqat siyosiy hokimiyatga ega bo`lishga intilayotgani sezilmoqda.

MISSIONERLIK

Missionerlik deb (lotincha missio- topshiriq, vazifa ma`nosini bildiradi) bir din vakillarini boshqa diniy e`tiqodga da`vat qilishni aytiladi.

Missiya tushunchasi ijobiy ma'noda muhim vazifa, maxsus topshiriqni ham bildiradi. Xalqaro uchrashuv va anjumanlarda ishtirok etadigan davlat delegatsiyasi ham missiya deb yuritiladi bunday missiya rahbari va a'zolarining huquq-majburiyatlari 1971- yilgi maxsus konvensiya bilan tartibga solinadi. Diplomatik vakolatxonalar ham missiya deb ataladi va bu borada 1961- yil qabul qilingan Vena Konvensiyasi amal qiladi.

Biroq missionerlik - boshqa tushuncha. U faqat diniy sohadagi faoliyat turini anglatadi, dinlararo munosabatlarga taalluqli bo'ladi.

Missionerlik tushunchasi prozelitizm tushunchasi bilan ma'no jihatdan yaqin va o'zaro aloqadordir. Prozelitizm - bir dinga, diniy konfessiya (ya'ni yo'nalish, oqim, mazhab)ga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan hatti- harakatlardir. Bunday xatti-harakatlar jumlasiga majburlash, tazyiq o'tkazish, ruhiy ta'sir etish, hiyla-nayrang ishlatish, pora berish kabi amallar kiradi.

Prozelit deganda, o'z e'tiqodini o'zgartirgan, boshqa dinga o'tib olib, shuni jon-jahdi bilan himoya qiladigan kimsa tushuniladi.

Hozirgi vaqtda aksariyat davlatlarda demokratiya tamoyillariga zidligi uchun missionerlik va prozelitizm qonunchilik yo'li bilan ta'qiqlangan.

XXI asr boshida missionerlik nihoyatda kuchaydi. Bu faoliyat turini o'rganish, uning samaradorligini oshirish maqsadida yangi ilmiy yo'nalish - missiologiya, ya'ni missionerlik to'g'risida ta'limot yaratildi. G'arbda ko'plab ilohiyot maktablari, qanday qilib bo'lsada, dinning avvalgi nufuzi va mavqeini tiklash chora-tadbirlarini ko'rmoqda. Buyuk Britaniyaning Birmingem shahrida Missiya va butunjahon xristianlik maktabi, Kembrijda - Genri Martin markazi, Vatikanda tarixiy papalar nomidagi Grigoriy

universiteti va Urban universiteti, Germaniyada Myunster cherkovi, AQSHdagi Nyu-Xayven shahrida Xorijiy missiyalarni o'rganish markazi va boshqalar ishlab turibdi.

Sobiq Sovet Ittifoqida mamlakat aholisi jahon diniy jarayonlaridan “temir qafas” bilan ihota qilingan, dinlarning, ayniqsa islom dinining erkin rivojiga to'siq va g'ovlar qo'yilgan edi. Qizil imperiyaning dahriylikka asoslangan kommunistik mafkurasi hukmronligi barham topgach, diniy ehtiyojlarni qondirish, diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishi uchun sharoitlar yuzaga keldi. Biroq turli mamlakatlarda diniy sohani erkinlashtirish ichki va tashqi ta'sirlar ostida, turli ko'rinish va har xil oqibatlar bilan sodir bo'ldi. Ayrim hududlarda diniy ekstremistik oqimlar, aqidaparastlik mayllari kuchaydi, konfessiyalararo nizo va kelishmovchiliklar yuzaga keldi.

Tashqi diniy markazlar MDH davlatlarida missionerlik faoliyatini kuchaytirdi. Rus ilohiyotchisi Sergey Shirokov keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, Rossiya va Sharqiy Yevropada 1982- yili 150 nafar missioner faoliyat yuritgan bo'lsa, 1993- yili ularning soni 691taga yetdi, 1997-yiliyoq 1000 dan oshib ketdi.

Demokratiya tamoyillariga og'ishmay amal qilayotgan yurtimizda har bir fuqaro qaysi millat vakili bo'lmasin, o'z ota-bobolarining urf-odatiga amal qilish, o'zi xohlagan dinga e'tiqod qilish huquqiga ega.

Vijdon erkinligi, xalqaro huquq normalarida, jumladan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham, eng oliy qadriyat deb belgilangan.

O'zbekistonda hozirgi kunda ko'plab din va konfessiyalar o'zaro ahil va murosas bilan yonma-yon yashab kelmoqda. Xalqimizning ma'naviyati, milliy g'oyasida dinlararo bag'rikenglik asosiy o'rinni egallaydi. Aynan

shu ma'naviyat, xalqimizga xos yuksak milliy g'urur chetdan keladigan, to'g'rirogi zo'rlik bilan kiritiladigan yot, begona g'oyalar, diniy aqidaparastlik va mutaassiblik yo'lida mustahkam qalqondir.

O'zbekiston Respublikasida ko'plab demokratik davlatlarda bo'lgani kabi, minglab diniy tashkilotlarning emin-erkin, qonun doirasida va xalqning qadriyatlarini oyoqosti qilmagan holda faoliyat yuritishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

AXBOROT VOSITALARI ORQALI AMALGA OSHIRILAYOTGAN MAFKURAVIY TAZYIQLAR

Axborot texnologiyalari (AT) - axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, ifodalash, tizimlash, uzatish, iste'molchi uchun foydalanishga qulay holga keltirish jarayoni kompyuter va telekommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshiriladigan, tartibga solingan va tashkillashtirilgan tizim va amaliy dasturlar majmuasidir. AT va ulardan foydalanish tufayli insonning ishlab chiqarish faoliyati, kundalik muloqot sohasi, ongu-tafakkuri kengayib boradi.

Zamonaviy hisoblash texnikasi va aloqa vositalari asosida axborotlarni to'plash, saqlash va kerakli manbalarga uzatishning zamonaviy kompyuterlashtirilgan usullari tobora rivojlanib bormoqda.

Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning

barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, ratsional mag'iz bor. Chunki ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi - alomatini aks ettirishi tabiiy.

O'tgan asrning oxiri va hozirgi asr boshida axborot vositalarining jadal rivojlanishi XXI asrning **Axborot (informatsion jamiyat)** asri deb atalishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari, axborotlashgan jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi globallashuv jarayonida axborot g'oyaviy ta'sir o'tkazish vositasiga aylanib bormoqda. Ayrim mafkura poligonlari o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishishda axborot xurujlaridan foydalanmoqda.

Axborot urushi (informatsion urush) –o'zga davlat tinch aholisi yoki harbiylariga muayyan axborot(informatsiya) tarqatish yo'li bilan ta'sir o'tkazish “axborot-ruhiy urushi” atamasi AQSH harbiy doiralari lug'atidan qabul qilingan.

Axborot urushida oddiy urushda qo'llanadigan qirg'in vositalari ishlatilmaydi. Uning ob'yekti - omma yoki alohida shaxslar ongidir.

Axborot urushida faktlar buzib ko'rsatiladi yoki ularning ta'sir ko'rsatayotgan tarafga foydali tomonlari bo'rttiriladi.

Axborot urushining tarkibiy qismlari:

Psixologik operatsiyalar - dushman askarlari ishonchiga ta'sir o'tkazish maqsadida axborotni qo'llash;

Elektron urush - dushmanga aniq axborot, ma'lumotga ega bo'lish imkonini bermaydi;

Dezinformatsiya - dushmanni o'zining kuchi va niyatlari to'g'risida soxta ma'lumot bilan ta'minlaydi;

Jismoniy vayron qilish - axborot tizimlarining elementlariga ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'lganida axborot urushining bir qismi bo'lib kelishi mumkin;

To'g'ridan-to'g'ri axborot hujumlari - axborot mohiyatini saqlagan holda uning ko'rinishini o'zgartirib yuborish.

Bugungi dunyoning taraqqiyoti ichki va tashqi omillar ostida yuzaga kelmoqda. Ichki va tashqi omillar asosan axborot vositasi bilan ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari-radio, televizor, gazeta, jurnal va internet orqali axborot ayirboshlash rivojlanib bormoqda. Mobil telefonlarini internetga ulash hodisalari ommaviy qo'llanilmoqda. Televideniya va internetning roli har qachongidan ortib bormoqda. Misol uchun 2002- yildagi Sidneyda bo'lib o'tgan Olimpiada o'yinlarining ochilish marosimlarini dunyo aholisidan 3 millialard 600 million kishi to'g'ridan-to'g'ri tomosha qilgan.

Buzg'unchilik targ'iboti yo'nalishlari

Psixologik urush - psixologik operatsiyalar vositasida olib boriladi. Psixologik operatsiya- bu inson ruhiyatining xususiyatlari va zaiflik hisobga olinib, maqsadli ravishda amalga oshiriladigan xatti-harakatdir.

Buzg'unchilik harakati oqibatlari:

Immigrantlarning ko'payishi;

Ayirmachilikning ko'payishi;

Jinoyatchilikning o'sishi;

Zinokorlikning avj olishi;

Ichkilikbozlik va giyohvandlikning o'sishi;

Bezorilikning ko'payishi;

Jamiyatdan bezishning yuzaga kelishi;

Harbiy xizmatdan bo`yin tovlash.

Hushyorlik va ogohlik e'tibordan soqit bo'lganda omma ongi uchun psixologik urush keskin kechadi.

Bugun deyarli har bir xonadonda, o`quv dargohida, korxonada, ko`cha-ko`yda axborotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyati mavjuddir.

Asrimiz boshlariga kelib internet rivojlanib bormoqda. 1995- yilda Internetdan foydalanuvchilar soni dunyo bo`yicha 900 ming kishi atrofida bo`lsa, 2002- yilda 500 million, 2005 yilda esa 1 milliard kishi Internetdan foydalana boshladi. O`zgacha aytganda dunyodagi biror shaxs, jamiyat, davlat yoki voqea, hodisa haqida sanoqli daqiqalarda xabar topish imkoni paydo bo`ldi.

Bugun deyarli har bir xonadonda, o`quv dargohida, korxonada, ko`cha-ko`yda axborotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyati mavjuddir. Ayniqsa internet kafelarda global tarmoqqa ulangan zamonaviy kompyuter doimo mijoz ixtiyorida. Davr bilan hamnafas yashashga imkon berayotgan bunday qulaylikdan xursand bo`lasan, kishi. Biroq tanganing ikkinchi tomoni ham borki, bu haqda atroflicha o`ylab ko`rish kerak. Gap o`sha o`rgimchak to`ri ta'sirida shakllanayotgan xatti-harakatlarni, ba'zan taqdirlarnida belgilab berayotgan "qadriyatlar", internet o`yinlaridagi har xil otishmayu qonxo`rliklardan zavq olib, vaqtini - kelajagini boy berayotgan yoshlar, qabih niyatlarini amalga oshirish maqsadida har lahzada o`ziga chorlayotgan "tuzoqlar" haqida o`ylab ko`rish zarur.

Xalqaro bolalar tashkiloti - YUNISEF tomonidan tashkil etilgan so`rovlarda aniqlanishicha, internetdan foydalanadigan 90 foiz bolalar axloqsiz surat va videolarga duch kelishi, 60 foizi esa bu turdagi axborotni

maqsadli ravishda izlaganini ko`rsatdi. Ushbu foydaluvchilarning katta qismini voyaga yetmaganlar tashkil etishi achinarli holdir.

Bundan tashqari, global tarmoq orqali diniy ekstremizm, mutlaq erkinlik, fahsh, giyohvandlik, zo`ravonlik, terrorizm, fashizm va shovinizm kabi balo - qazolarni tarqatishga zo`r berilayotgani kishini tashvishga soladi. Ular domiga ilinganlar jamiyat hayotiga loqayd faqat o`z manfaatlarini o`ylab yashaydigan, axloq – odob qoidalarini, mehr - muhabbat kabi insoniy tuyg`ularini tan olmaydigan zombiga aylanib qolishi hech gap emas.

Global tarmoqda soat sayin yangidan - yangi, rang-barang, jozibador o`yinlar paydo bo`lmoqda. Ayniqsa ekshn (inglizcha-harakat) janridagi elektron o`yinlar, jangari sahnalar, mushtlashuv va otishmalarga boyligi bilan bolaning g`o`r ruhiyatiga tez yo`l topadi. Ushbu o`yinlardagi so`zlar va ularning ma`nosiga hamohang qonli sahnalar yosh qalbda mehr - muhabbat, rahm - shafqat, go`zallikkka oshuftalik singari ulug`vor tuyg`ularni o`ldirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda sog`lom axborot muhitini shakllantirish, global tarmoqda har tomonlama foydali, milliy ruhdagi saytlarni ko`paytirish, yoshlarda mafkuraviy immunitet va axborot maydonida kechadigan janglarda milliy o`zlikni mudofaa qilish ko`nikmalarini tarkib toptirishga alohida e`tibor qaratilmoqda.

Axborot shiddati kun sayin ortib borayotgan zamonda har lahza ogoh va hushyor yashashimiz, farzandlarimizda yangilikka nisbatan ongli munosabatni shakllantirishimiz, qalblarida ma`naviy bo`shliq yuzaga kelishiga yo`l qo`ymasligimiz zarur. Qo`hna qadriyatlar, milliylik, o`zlik,

madaniyatu ma'naviyatga putur yetkazish inson qalbi va ongini egallashdan boshlanadi.

OMMAVIY MADANIYAT

Ma'naviy, g'oyaviy tahdidning muhim yo'nalishlaridan yana bir "ommaviy madaniyat" niqobi ostidagi tahdiddir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida biz uchun mutlaqo yot bo'lgan ommaviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kelayotganini alohida qayd qiladi:

"Tabiiyki "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzqlik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.(Karimov I.A. " Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T., " Ma'naviyat", 2008, 117-bet.)

O'tgan asrning 60 - 80 yillariga kelib, jahon maydoniga insoniyatni ma'naviy qullikka yetaklovchi ko'plab mafkuraviy xurujlar avj ola boshladi. Globallashuv soyasida dunyo kuch markazlari tomonidan g'oyaviy ta'sirlar asosida millatlarning tarixiy poydevoriga ega bo'lgan o'ziga xos qadriyatlarini izdan chiqarish hamda insonlarning fikrlash va tasavvur qilish qobiliyatini susaytirish orqali yangicha ko'rinishdagi umummadaniyatni shakllantirishga bo'lgan urinishlar kuchaydi. Natijada, ko'ngilxushlik orqali ruhiy halovat topishni targ'ib qiluvchi "sadizm", "satanizm" singari "...izm"lar internet va multimedaning kuchi bilan dunyoning har bir nuqtasiga kirib bordi.

Ayniqsa keyingi yillarda g`arb mamlakatlarining dunyo xalqlarini g`arblashtirishga, ya'ni o`z madaniyatlarini boshqalarga ham singdirishga, o`zgalar ongiga egalik qilishga intilishlari yaqqol namoyon bo`layapti. Iqtisodiy salohiyati mustahkam bo`lgan davlatlar tomonidan bu maqsad uchun misli ko`rilmagan darajada mablag` ajratilayotgani ham hech kimga sir emas. Bugun “ommaviy madaniyat” deb nom olgan va yoshlar ongini buzish orqali ularning ma'naviy ruhiy olamiga ta'sir qilishga asoslangan oqimlarning sanog'i yo`q. “Zamonaviylik” tushunchasi doirasida turli shakl va qiyofaga ega ular. Masalan, Xellouin bayrami. Bir qarashda shunchaki ko`ngilochar bayramga o`xshagan bu tadbir ortida yuqorida aytilgan maqsadlar yashiringanligini ba'zida yoshlar tugul, kattalar ham tushunmaydi. Chunki, natija uchun bugun yoki erta emas, yillar hisobga olingan.

Xellouinning tarixi haqida turli qarashlar mavjud. Ayrim manbalarda aytilishicha, Irlandiyada yashagan qadimgi kelt qabilasi 1- noyabrni yangi yil bayrami sifatida nishonlagan. Keyinchalik, Irlandiyaga xristian dini kirib kelgach, keltlar do`zax va yovuz kuchlarga ishona boshlaganlar hamda yangi yil bayramini yalmog`iz kampir obrazini yaratish uchun har xil qo`rqinchli liboslar kiygan holda kutib olishgan. Shundan keyin bu liboslar bayram personajiga aylangan. Boshqa manbada keltirilishicha esa VII asrda Rim papasi Bonifatsiy 1- noyabrni “All Hallovs Eve” - “ Barcha muqaddaslar kuni” deb e'lon qilgan. Bugungi Xellouin bayrami (31-oktyabr kuni nishonlanadi) shundan kelib chiqqanligi haqida farazlar mavjud. Ko`rinib turibdiki, g`arbdagi ko`plab davlatlarda har yili sabrsizlik bilan kutiladigan Xellouin ma'naviy - madaniy jihatdan bizning millatimizga, umummilliy qarashlarimizga, qadriyatlarimizga umuman mos

kelmaydi. Qolaversa, uni nishonlash yillar silsilasida o'zgarib, bugun umuman boshqacha ko'rinish va shaklga ega bo'lgan. Aniqrog'i, yuqorida aytganimiz - dunyo kuch markazlari ushbu bayramdan o'z muddaolari yo'lida foydalanishyapti. Maxluqlar ko'rinishidagi qo'rqinchli liboslaru yovuzliklar aks etgan niqoblarda kun bo'yi ko'chada olomon bo'lib yurish, shovqin - suron ko'tarish, tungi klublarga borib ko'ngillari istagan ishni qilish hamda bu orqali ruhiy huzur olish mentalitetimizning qay bir jihatiga mos keladi?! Qolaversa, bayramda yovuzlik, insoniyatga xos bo'lmagan sifatlar targ'ib qilinadi. Bu yoshlar ongiga ta'sir qilishning Xellouin bahonasidagi bayramona ko'rinishi xolos. Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu bayram nishonlangan kun ko'plab qonunbuzilish holatlari, turli jinoyatlar, tartibsizliklar ko'proq sodir etilar ekan. "O'liklar bayrami" deb atalishiyoq Xellouinning tanazzul girdobi ekanligidan dalolatdir.

«Ko'rinib turibdiki, "ommaviy madaniyat" niqobi ostida faoliyat ko'rsatayotgan kimsalar bugungi taraqqiyot, oila muqaddasligi, inson hayoti va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda. Ko'pchilik butun jahonda balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurash naqadar muhim ekanini anglab olmoqda" - deb Prezidentimiz ta'kidlaydi.

YOSH AVLODNI MA'NAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYA QILISH YO'NALISHLARI

Yosh avlodimizni turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilish haqida gapirganda, nafaqat xalqimizni ulug'laydigan buyuk xususiyatlar, ayni paytda uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, eski zamonlardan qolib kelayotgan noma'qul odatlar haqida ham ochiq so'z yuritishimiz zarur. Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh – urug'chilik va mahalliychilik, korrupsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish to'g'risida o'ylashimiz lozim. Men bu o'ta muhim vazifa keng jamoatchiligimizning, ayniqsa ziyolilarimiz, olim va adiblarimiz, san'at va madaniyat ahli, o'zini ma'naviyat sohasiga bag'ishlagan barcha insonlarning doimiy diqqat markazida bo'lishini istardim” (Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.T., Ma'naviyat, 2008, 119-120 bet)

Davlatimiz rahbarining yuqoridagi fikrlari shuni ko'rsatib turibdiki istiqlool sharofati bilan xalqimizning asriy orzulari ro'yobga chiqdi. Ammo xotirjam bo'lishga haqqimiz yo'q. “Shuni unutmaslik kerakki - deb ta'kidlaydi Prezidentimiz- bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin” (Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008, 115 bet)

Ma'naviy tahdidlarni bartaraf qilish muammosi Prezidentimiz Islom Karimovning doimo diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Davlatimiz rahbarining mafkuraviy immunitet, mafkuraviy profilaktika kontsepsiyasida ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashning uslub, vosita va

yo`nalishlari “fikrga qarshi fikr, “g`oyaga qarshi g`oya”, “jaholatga qarshi ma`rifat” bilan kurashish lozimligining mazmun-mohiyati ochib berilgan.

MAFKURAVIY IMMUNITET - shaxs-ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g`oyaviy ta`sirlardan himoya qilishga xizmat qiladigan g`oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi. Immunitet - kishi organizmining turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. Bundan farqli o`laroq insonning umumiy immunitet tizimi tug`ma bo`lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan har avlod o`ziga xos xususiyatga ega. Uchinchidan immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta`minlash mumkin. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi elementi - bu, bilim. Mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob`yektiv bo`lishi, voqelikni to`g`ri va to`liq aks ettirishi, inson ma`naviyatini boyitishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ular, o`z mohiyati e`tiboriga ko`ra, Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog`liq bo`lmog`i kerak. Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi elementi ana shunday ilg`or bilimlar zahirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Bilimlar qanchalik ob`yektiv va chuqur bo`lsa, uning zahirida yuzaga keladigan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo`ladi. Qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g`oyalar yo`lida mustahkam qalqon bo`lib xizmat qiladi. Bu ikki element mafkuraviy immunitetning uchinchi elementi, ya`ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy – ma`rifiy sohalardagi maqsadlar tizimi bilan bog`liq. Ana shunday aniq maqsadlar tizimi bo`lmas ekan, inson, millat yoki jamiyat goh oshkora, goh pinhona mafkuraviy tazyiqlarga duchor bo`laveradi.

MAFKURAVIY PROFILAKTIKA

Mafkuraviy profilaktika - ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy - tarbiyaviy, ma'naviy - mafkuraviy ishlar majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi. Mafkuraviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikni oldini olish yoki biror - bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma - xil usul va yo'llaridan foydalaniladi, turli vositalar qo'llaniladi. Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda mafkuraviy profilaktikaning o'rnini katta. U mohiyatan yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlarga tayanadi. Ta'lim -tarbiya va targ'ibot - tashviqot tizimi mafkuraviy profilaktikani amalga oshirishga yordam beradi. Sog'lom mafkurani xalq qalbi va ongiga singdirishda xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari ham bunda o'z o'rniga ega. Shuningdek, Vatan, xalq manfaatlarini, do'stlik va birodarlikni, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni targ'ib etuvchi ertaklar, dostonlar, qo'shiqlar, raqslar, turli ko'rinish va mazmundagi ma'naviy - ma'rifiy tadbirlar mafkuraviy profilaktikani amalga oshirish shakllaridir.

TARG'IBOT

Keng ma'noda ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, aholining ijtimoiy - siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy - siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib etishdir. Targ'ibot jarayonida fan, san'at, siyosiy va mafkura yutuqlari keng ommalashtiriladi. Tor ma'noda mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyat. Targ'ibot

ilmiylik, konkretlik, ob'yektivlik, ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liqlik tamoyillariga asoslanishi, tashkiliy jihatdan uyushgan bo'lishi lozim. Targ'ibot - biror g'oya, ta'limot, fikr va qarashni aholi o'rtasida keng yoyish, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan, aniq maqsadni ko'zlab olib boriladigan tushuntirish va da'vatni, odamlarni muayyan bir vazifani hal qilish, ma'lum bir tartib - qoidalar asosida yashash, mehnat qilishga ma'naviy - ruhiy tayyorlash, g'oyaviy ruhlantirish, safarbar qilishni anglatadi.

TASHVIQOT - odamlarga ta'sir o'tkazish maqsadida yozma va og'zaki qilinadigan ishlar, undash, da'vat qilish, shu asosda ularning qalbida zavq - shavq, muhabbat yoki nafrat uyg'otishni o'z ichiga oladi. Tashviqot – ma'lum bir ijtimoiy guruh yoki ommani ko'zlangan maqsad sari faollikka undaydigan targ'ibot faoliyatidir. Tashviqotning og'zaki, nashriy va audio-vizual turlari mavjud bo'lib, u g'oyat ta'sirchan ijtimoiy - siyosiy kurash vositasi hisoblanadi. Barcha zamon va makonlarda ham har qanday o'z xalqi kelajagini o'ylagan mamlakatda aholi davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat, islohot, o'zgarishlardan ma'lum darajada xabardor qilib borilgan. Bu esa jamiyatni birlashtirish, umummiliy maqsadlar yo'lida safarbarlikni ta'minlab, davlat va jamiyat birligiga erishishdek ezgu maqsadlarga xizmat qilgan.

FIKRG QARSHI FIKR.

Har bir kishida haqqoniy va asosli mustaqil fikr hamda dunyoqarashni shakllantirish kerak. Buning uchun uning bilim va ma'lumotlilikini oshirish muhim ahamiyatga ega. Inson Internet xabarlarini o'qish, DVD, SD ko'rish bilan bilimli va zamonaviy madaniyatli bo'lib qolmaydi. Avvalo, ilmiy - nazariy bilimlarni egallash talab etiladi. Qadimiy obidamiz

“Avesto”da “Bilim –ko`zning chirog’i» - deb uqtirilgan. Buning ma’nosi shuki, faqat bilim vositasida insonning ko`zi ochilishi, ya’ni mustaqil fikr va dunyoqarashga ega bo`lishi mumkin. Faqat mustaqil fikrga va dunyoqarashga ega bo`lgan odam biryoqlama, g`arazli va zararli fikrlarni farqlay oladi. Bu “fikrga qarshi fikr” tamoyilining mazmunidir.

G`OYAGA QARSHI G`OYA.

Inson ongida uning o`zi va o`zgalarga manfaat keltiradigan tushunchalar tarkib topishi kerak. Biror shaxs insonda ezgulikka nisbatan yovuzlikning ustuvor bo`lishini isbotlab bera olgan emas. Aksincha insonning beg`ubor bolalik davrini boshidan kechirishi uning ongida ezgulik ustuvor ekanini ko`rsatadi. Shuning uchun inson ongi yovuz va johil g`oyalardan himoya qilinishi kerak. Jamiyatimizda bu ish milliy g`oya asosida amalga oshirilmoqda. Demak, milliy g`oya asosida inson ongida ezgulik, adolat, haqiqat va mas’uliyat g`oyalarini shakllantirish bilan uni yovuzlik, jaholat, nodonlik va befarqlik kabi illatlardan himoya qilish mumkin. Milliy g`oyaga ega inson yovuz g`oyalarni farqlay oladi, bu “g`oyaga qarshi g`oya” tamoyilining mazmunidir.


JAHOLOTGA QARSHI MA’RIFAT.

Inson bu dunyoning sir - asrorlarini yetarli darajada anglashi, o`zining kim ekanini bilishi va hayot mazmunini tushunishi kerak. Bugungi kunda buning yagona yo`li professional shaxs sifatida voyaga yetish bo`lib qoldi. Professional shaxs bo`la olishi uchun o`z nafsini tiya bilishi, kasb mahoratini egallash va odam bo`lib yashash ko`nikmasini hosil qilishi kerak. Bularning barchasi bir so`z - bilmoq (ma’rifat) zamirida jo bo`lgan.


Bilimli kishi jaholat, nodonlik va yovuzlikka qo'l urmaydi. Bu "jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyilining mazmunidir.

Fikr, g'oya va ma'rifat har qanday shaxsni, jamiyatni himoya qila oladi. Ma'naviy qadriyatlar masalasiga alohida e'tibor berish lozim. Ma'naviy qadriyatlarga tayanib, milliy o'zlikni saqlab qolish mumkin. Xalqimiz ma'naviy va axloqiy qadriyatlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy iftixor, bag'rikenglik kabi xususiyatlar ustuvor. Ularni izchil targ'ib qilib borish bilan ma'naviy tahdidlarga g'oyaviy zarba berish mumkin.

ILOVALAR



Inson ongi va qalbiga milliy mafkurani singdirish



Barkamol avlod

Milliy an'analarga sadoqat

Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik

Begona va buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushmaslik

G'oyaviy immunitetga ega bo'lish

Markaziy Osiyodagi mafkuraviy jarayonlar

Butun dunyo musulmonlarini islom xalifaligiga birlashtirish harakatlari

Salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar

Tariximiz, milliy qadriyatlarimiz va din mohiyatini soxtalashtirishga urinish

Axloqsiz g'oyalarni tarqatish orqali odamlarning ma'naviy qashshoqlashishiga urinish

G`AYRIINSONIY, YOT G`OYALARNING ZARARLI OQIBATLARI

Inson tabiatiga zid, uni salbiy tomonga o`zgartiradi

Nosog`lom turmush tarzini shakllantiradi

Fikrlar xilma-xilligini cheklaydi

Qaramlik, tobelik, mutelik muhitini yaratadi

Tafakkur tarzini o`z negizlaridan begonalashtiradi

Tafakkur tarzini o`z negizlaridan begonalashtiradi

Begona urf-odat, an`analarni targ`ib qiladi. Ularning kirib kelishiga muhit yaratadi.

Mamlakatni, xalqni o`z milliy qadriyatlaridan, oxir – oqibat o`z taraqqiyot yo`lidan begonalashtiradi

Jamiyatda xalqlar va millatlararo totuvlik, dinlararo bag`rikenglikka rahna solib, ichki ixtiloflar, parokandalikka olib keladi

G`AYRIINSONIY YOT G`OYALARNING XUSUSIYATLARI

**Demokratik va
milliy qadriyatlarni tan
olmaslik**

**Jamiyatda ijtimoiy-
siyosiy beqarorlikka
moyillik**

**Ijtimoiy
ixtiloflarni
qo'llash**

**G`oyaviy
yakkahokimlikka
intilish**

**Mutlaq haqiqatga
da'vo qilish**

**Yagona, hukmron
mafkuraga urinish**

**Aqidaparastlik
va siyosiy
ekstremizm**

**Fikrlar
plyuralizmini
rad etish**

G`AYRIINSONIY, YOT G`OYALARNING TASHKILIY ASOSLARI

Diniy ekstremizm

**Begona, soxta diniy
aqidalar**

**Jangarilikni
targ`ib etish**

Aqidaparastlik

Xalqaro terrorizm

Narkobiznes

**Noqonuniy qurol-
Yarog` savdosi**

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma uch yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so`zi. “Xalq so`zi” gazetasi, 2014- yil 1- sentyabr, № 169.
2. Karimov I.A. “ O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xafvsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” Toshkent, “ O`zbekiston”, 1997.
3. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin. Toshkent, “ O`zbekiston”, 1998.
4. Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch”, Toshkent, “ Ma`naviyat” 2008.
5. Nazarov Q. Falsafa” qomusiy lug`at.Toshkent, “ SHarq”, 2004.
6. “Tafakkur” ijtimoiy-falsafiy, ma`naviy va ma`rifiy jurnal, 4- son, 2011, 80-81 betlar.
7. “ Do`stlik bayrog`i” gazetasi, 2013- yil 11- oktyabr, 10- may, 2010 -yil 22- dekabr.